

## Qoraqalpog‘iston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 4 591 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 75 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 4 514 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 6 304,7 mlrd so‘mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 137,5 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 229,7 mlrd so‘mni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 190,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 874,8 mlrd so‘m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 136,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 912,7 mlrd so‘mni (o‘shish sur‘ati 122,5 %) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o‘shish sur‘ati (% da)



## Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

(ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 594 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 582 tani tashkil qildi.

Respublika bo'yicha 2026- yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 128,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 963,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 % ga to'g'ri keldi. Respublikada jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 92,3 % ni tashkil qildi.


### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Nukus shahrida (2,9 marta oshgan) va Taxiatosh tumanida (161,4%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 112 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 110 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-aprel oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 824,8 mlrd so'mni tashkil qildi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)